OILA – JAMIYATNING ASOSIY NEGIZI

Sobirova Dilafruz Abdulxay qizi
Andijon davlat pedagogika institutи boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti
Yusupova Umida Zayniddin qizi
Andijon davlat pedsagogika institutи Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilaning jamiyatdagi o‘rni, er-xotinning oiladagi vazifalari, burchi xususida fikrlar bildirilgan. Oilalarni mustahkamlash borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar Andijon va Samarqand viloyati statistik ma’lumotlari misolida ko‘rib chiqilgan va mazkur viloyatlarning 2022-yilning yanvar-sentabr oylaridagi mehnat ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Oila, nikoh, Avesto, Temur tuzuklari, statistika, ajrim xolatlari, ishsizlik, kridet.

Аннотация: В данной статье высказываются мнения о роли семьи в обществе, святости семьи, обязанностях и ответственности мужа и жены в семье. Реализуемые в нашей стране меры по укреплению семьи были рассмотрены на примере статистических данных Андижанской и Самаркандской областей, а также проанализированы трудовые показатели этих регионов в январе-сентябре 2022 года.

Ключевые слова: Семья, брак, Авеста, Тимур тузуклари, статистика, случаи развода, безработица, кредит.

Abstract: This article expresses opinions about the role of the family in society, the sanctity of the family, the duties and responsibilities of husband and wife in the family. The measures implemented in our country to strengthen the family were examined using the example of statistical data from the Andijan and Samarkand regions, and the labor indicators of these regions in January-September 2022 were analyzed.

Key words: Family, marriage, Avesta, Timur tuzuklari, statistics, divorce cases, unemployment, credit.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev oilaning muqaddasligi haqida so‘z yuritar ekan: “Odamlar bilishlari kerakki, oila muqaddas biz uchun, oilani saqlab qolmasak, biz o‘zligimizni yo‘qotamiz”, - deya o‘zbek xalqi oilani naqadar ulug‘lashi, muqaddas bilishini ta’kidlab o‘tgan. E’tirof etish kerakki, oila biz uchun yagona maskan, har birimiz unga intilamiz. Oila sizga hech qachon xiyonat qilmaydi, sizni kamsitmaydi. Oila bu siz doim sevgan va hurmat topadigan joydir.

Bizga tarixdan ayonki, zardushtiylikning qadimiy kitobi “Avesto”da ham oilaga alohida e’tibor qaratilgan, oila barqarorligida er va xotining teng ma’sulligi, farzand tarbiyasi to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan. “Avesto”da yozilishicha, agar qiz farzand o‘n besh yoshida oila qurmasa, o‘g‘il farzandlar o‘n yetti yoshida oila qurmasa ular jazolanganlar. Zardyshtiylikda er va xotin o‘rtasida nizo paydo bo‘lsa yoki ota-onalar bilan kelisha olmasa ularning nikohi bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmagan, oilani asrab qolishga harakat qilingan.

O‘rta Osiyo tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan Amir Temur davrida oila mustahkamligiga jiddiy e’tibor berilgan. Buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur o‘zining „Temur Tuzliklari” kitobi shunday yozilgan: “O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni hatto davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog‘liq-salomatligini, jismonan kamolatini aniqladim. Kelin bo‘lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, xulqi va, albatta, sog‘lom ekanligi barcha qusurlardan xoli bo‘lsa el-yurtga katta to‘y-tomosha berib kelin tushurdim”[1], - deb

ta’kidlab o‘tgan. Asrlar o‘tishiga qaramasdan xalqimizda mana shu odat saqlanib qolgan. Hozirgi kunda ham kelin bo‘lg‘usi kelining yetti avlodi so‘rab-surishtiriladi.

Sharqda muayyan turmush tarziga rioya qilib, tajriba orttirish, saranjomlik va tejamkorlik, qat’iylik va to‘g‘riso‘zlik singari odob-axloq me’yorlarini kamol toptirish azaldan oilaning asosiy vazifasi bo‘lib kelgan. Бу haqda buyuk qomusiy olimlarimiz, xususan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u biligi”, Kaykoviskining “Qobusnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul xaloyiq”, Abu Nasr Farobiyning “Baxtga erishish haqida” , Abu Ali ibn Sinoning “Tadbir al-manozil risolasi”, Sa’diyning “Guliston” va shu kabi kitoblarиda keltirib o‘tilgan.

Turmush ma’daniyati, odob-axloq, sevgi-muhabbat borasida o‘ziga xos qaytarilmas fikrlar sohibi buyuk Alisher Navoiy oila haqidagi kitobiga “Mahbub ul-qulub” – “Qalblarning sevgisi” deb nom qo‘yilishi bejiz emas.

Hammamizga ma’lum bo‘lgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanиda oila a’zolarining o’zaro munosabati chiroyli yoritib berilgan. Otabek bilan Kumushbibi yoki Qutudor bilan Otabek o‘rtasidagi, Yusufbekxoji bilan Kumushbibi o‘rtasidagi munosabatlar, bir-biriga bo‘lgan hurmat, ibo-hayoda oilaning muqaddasligi, oilaga bo‘lgan cheksiz hurmat, sadoqatni ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda oilani mustahkamlash, jamiyatdagi o‘rnini yanada yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar an’anaga aylangan yillarni nomlanishida ham ko‘rishimiz mumkin. 1998-yil – “Oila yili”, 1999-yil – “Ayollar yili”, 2012-yil – “Mustahkam oila yili” deb e’lon qilgan.

Statistika ma’lumotlariga ko’ra 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida respublika bo’yicha 34 464 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilgan bo’lib, har ming nafar aholiga to’g’ri keladigan nikohdan ajralishlar soni 1.4 promillerni tashkil etadi.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni bo’yicha eng ko’p Toshkent shahri 4 433 ta va Farg’ona viloyatida 3 979 ta qayd etilgan bo’lsa, har ming nafar aholiga to’g’ri keladigan nikohdan ajralioshlar soni bo’yicha Toshkent shahri 2.0 Promiller va Sirdaryo viloyati 2.0 Promiller eng yuqori ekanligi kuzatiladi.

HUDUDLAR KESIMIDA AJRASHGANLAR SONI

Qoraqolpog’iston R.-1 554 ta

Buxoro- 1 986 ta

Jizzax- 1 231 ta

Qashqadaryo- 2 731 ta

Navoiy- 1 060 ta

Namangan- 3 250 ta

Samarqand- 3 799 ta

Surxondaryo- 2 075 ta

Sirdaryo- 1 337 ta

Toshkent- 3 845 ta

Farg’ona- 3 979 ta

Xorazm- 1 511 ta

Oila deb atalmish muqaddas dargohning buzulishiga arzimas sabablar – vaqtinchalik yetishmovchilik, uchinchi shaxsning aralashuvi, hiyonatda gumon qilish, oila haqida yetarlicha tushunchaga ega bo‘lmay yosh turmusht qurib kabilar ajrashganlarning asosidir.

Xalqaro tashkilotlar, xususan BMT tomonidan har yili ajralishlarning global koeffitsiyenti berib boriladi. Mazkur ma’lumotlarga ko‘ra, nikohdan ajrashish statistikasi bir qator ta’sirchan omillar tufayli keskin o‘zgarib bormoqda. Dunyo bo‘yicha ajrashishga juftliklarning o‘zaro mos kelmasligi, xiyonat, giyohvandlik, alkogolga qaramlik, moddiy yetishmovchilik hamda jismoniy, ruhiy zo‘ravonlik katta ta’sir o‘tkazadi. Shuningdek, o‘zbek oilalarning ajralishlariga uchinchi shaxslarning aralashuvi - qaynona-kelin munosabatlari, yosh oilalarning o‘z uy-joyiga, daromad manbaiga ega emasligi kabi omillar ham katta ta’sirga ega.

Ajrashmoqchi bo‘lgan er-xotin uchun muhim bo‘lgan narsa boshqa juftlik uchun ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin. Qanday sabab bo‘lmasin ajrashish oila uchun ham jamiyat uchun ham katta yo‘qotish hisoblanadi. Ajrashish, ayniqsa, bolalar uchun ayanchli holat. Ko‘pgina bolalar ota-onalarining ajrashishlarida o‘zlarini ayblashadi, aybdorlik qayg‘uga sabab bo‘ladi. Ajrashish bolalar ta’limiga salbiy ta’sir o‘tkazib, o‘quv jarayoni sustlashishiga yoki ta’lim olish imkoniyatlari uchun moddiy ta’minot cheklanishiga olib keladi Bir donishmanddan odamlar so‘rashibdi: Oila baxtining siri nimada? Shunda bunga donishmand shunday javob beribdi – “Ayolning cheksiz sabrida”, - deb javob bergan ekan.

Biz ajrimlaring asosiy sabablariga yetishmovchilik deb yozib o‘tdik mana shu yetishmovchilikni oldini olish uchun davlatimiz tomonidan ko‘plab ishlar amalga oshirilayapti. Bunga misol qilib Samarqand viloyati bilan Andijon viloyatini ko’rib chiqsak

Biz Samarqand viloyatidagi ishsizlar sonini ko’rib chiqsak

Ishsizlar soni: 149.5 ming;

Mehnat bilan bandlik: 1501.3 ming kishi;

Bandlik darajasi: 65.9 foiz

Ishsizlik darajasi: 9.1 foiz;

Mehnat resuslar soni: 2158.1 ming kishi;

Andijon viloyatining 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida mehnat ko‘rsatkichlari statistik raqamlarda:

Mehnat resurslari soni – 1776,5 ming kishi

Mehnat bilan band bo‘lgan aholi soni – 1312,9 ming kishi

Bandlik darajasi – 70,5 %

Ishsizlar soni – 127,6 ming kishi

Ishsizlik darajasi – 8,9 %

Iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi soni – 336,0 ming kishi

Andijon viloyatida xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni, xususan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, “Ustoz-shogird” an’analari asosida hunarmandchilik bilan shug‘ullanishni targ‘ib etish, aholi tomorqalaridan samarali foydalanish, pillachilik sohasida kasanachilikni kengaytirish orqali bandlikni ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qilgan. Mazkur qarorda Andijon viloyati hokimligiga:

- yangidan tashkil etiladigan hunarmandchilik va ipakchilik klasteri tashkilotlarida klaster tizimini to‘liq o‘z ichiga olgan jarayonni tashkil etish, yangi tutzorlarni tashkil etish uchun paxtadan qisqartirilgan yerlardan 100 gektardan kam bo‘lmagan yer maydonlari ajratilishini ta’minlasin;
- zamonaviy pilla yetishtirish inshootlarini qurish uchun tumandagi tashkilotlarning bo‘sh turgan yoki samarasiz foydalanilayotgan yer maydonlaridan hamda qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan belgilangan tartibda ajratilishini ta’minlasin;
- bir oy muddatda davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari va tijorat banklari bilan birgalikda mazkur qarorning loyihalarni amalga oshirilishining aniq muddatlari ko‘rsatilgan tarmoq jadvallarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin kabi vazifalar yuklatilgan.

Bunday qarorlar aholi o‘rtasida ishsizlik kamaytirish orqali oilalarni mustahkamlash, farovonligini oshiriga qaratilgandir. Davlaytimiz tomonidan oilalarni asrab qolish, mustahkamlash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotganda o‘z oilamizning tinchligi, farovonligini o‘ylamasligimiz achinarli holat emasmi?!

Nikohni asrab qolish, oilalarni mustahkamlash uchun, avvalo, yosh oilalarni doimiy ish, uy-joy, real daromad bilan ta’minlash darajasini oshirish lozim. Oila qurayotgan yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash, ularga oila muqaddasligi g‘oyasini singdirish shart.

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikka nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari orqali ham ajrashish mumkin, oilalarni saqlab qolishga ko‘maklashish uchun mazkur tartibni bekor qilgan holda, har qanday ajrashishni sud tartibida amalga oshirishni joriy etish lozim.

Yarashtiruv komissiyalari faoliyatini takomillashtirish, nizoli oilalar bilan doimiy ravishda aloqada bo‘lishning yangi mexanizmlarini joriy etish, fuqarolarga har bir oila davlat muhofazasida ekanligini amalda his qildirish kerak. Zero, oilani asrab-avaylash, uning mustahkamligini ta’minlash, ajrashish arafasidagi oilalarni yarashtirish eng ezgu amallardan hisoblanadi.

Oila eng muqaddas dargoh! Oilada ota-onamiz bizni dur u gavharimiz, aka-ukalarimiz qalqonlarimiz, opa-singlimiz bizning ishonchimiz, g‘ururimiz! Oilani asrab-avaylash har bir insonning burchidir

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.Амир Темур ўгитлари. Т.: 1992. 58-б.

2.https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/30641-andijon-wqviloyatining-mehnat-ko-rsatkichlari-raqamlarda

https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/28357-9-oyda-34-464-ta-

ajrim-qayd-etildi

4 “AVESTO”DA NIKOH VA OILA MASALASI

1. Темур Тузликлари
2. кун.уз, Дарё.уз, ВикиСтипендийа, Статистика агентлиги,